

ALISHER NAVOIY DOSTONLARI VA G‘AZALLARIDAGI BADDIY RAMZ HAMDA OBRAZLAR

Mutafoev Abubakir Muhiddin o‘g‘li

Buxoro davlat universiteti magistranti.

Mir Arab orta maxsus islom bilim yurti oqituvchisi.

mustafoev.abubakr@bk.ru

Annotatsiya:

Alisher Navoiy xalqimiz ma‘naviy dunyosining shakllanishiga katta ta‘sir ko‘rsatib kelgan buyuk siymolardan biridir. Bugungi kunda yoshlar qalbida milliy g‘urur, o‘zlikni anglash, go‘zallik va nafosatga shaydolik tuyg‘ularini kamol toptirishda Navoiy asarlari muhim manba bo‘la oladi. Zero, ulug‘ san‘atkor asarlari mohiyatiga singdirilgan insonparvarlik, xalqparvarlik, adolat, haqiqat, imon-e‘tiqod yetukligi, shukronalik, sabr-qanoat, kelajakka umidvorlik singari g‘oyalar barcha davrlarda ham insoniyat ma‘naviy kamoloti uchun muhimdir. Bundan tashqari Navoiy asarlaridagi ramz va timsollar, obrazlar benihoya go‘zal poetik mahorat orqali yaratilgan bo‘lib, ulardagi mazmun mohiyatini talabalarga yorqin dalillar orqali yetkazib berish zarur deb o‘ylayman.

Kalit So‘Zlar:

Mumtoz adabiyot, ramz va majoz, obraz, “Layli va Majnun” dostoni, lirik chekinish.

Turkiy xalqlarning “shams ul-millat”i bo‘lgan Nizomiddin Mir Alisher Navoiy jahon adabiyoti xazinasini o‘zining hassos she‘riyati, buyuk “Xamsa”si, fan sohalarining turli tarmoqlariga bag‘ishlangan boy ilmiy merosi bilan boyitgan so‘z san‘atkoridir. O‘z ijodiy merosida 26 mingdan ortiq lug‘at boyligidan foydalangan bu buyuk daho mana besh asrdan oshibdiki, asarlaridagi chuqur falsafiy mushohadakorlik, ma‘no-mohiyatning keng ko‘lamligi va nazmiy merosidagi fasohat dengizining bepoyonligi bilan jahon ahlini hayratga solib keladi. Dunyoda Alisher Navoiy kabi asarlari keng tarqalgan, jahonning deyarli har bir chekkasida kitoblarning nusxalari saqlanayotgan boshqa bir ijodkorni topish qiyin.

Mumtoz adabiyotimizning durdona asarlarida ramz va majoz bilan so‘zlash an‘ana edi. Biz hozirgi zamon adabiyot ixlosmandlari, mumtoz adabiyot namunalarini yaxshiroq tushunish, o‘sha davrdagi muallifning asl maqsadini anglash uchun mana shu ramz tilini bilishimiz kerak bo‘ladi. Shu o‘rinda ramz va majoz istilohlarining qisqacha izohini keltirib o‘tish joiz. Ramz – simvol; ko‘chim turlaridan biri, faqat shartli ravishda va shu matn doirasida ko‘chma ma‘no kasb etuvchi so‘z yoki so‘z birikmasidir.

Turkiy she‘riyatdagi badiiy san‘atlarning maxsus poetik usul sifatida shakllanishi (o‘zbek lirikasi misolida) va barcha imkoniyatlarining namoyon bo‘lishi Navoiy lirikasida ko‘rinadi. Tashbehning musalsal turi, takror, radd ul-matla‘ va radd ul-kofiya, ranglardan ramziy vosita sifatida foydalanish, tashobih ul-atrof kabi badiiy tasvir usullari ana shular jumlasidandir.

Navoiyniyag vasf xarakteridagi g‘azallarida ranglarning ramziy talqini keng qo‘llanilgan. Bunda bir g‘azalda tasvir faqat bir rang bilan borliq holda boradi. She‘rdagi detallar ham ana shu rangdan ko‘zda tutilgan ramziylikka, shoirning maqsadiga bo‘ysundiriladi. Lirik qahramon xarakteri ham goh umumiy fonda, goh parallel ravishda ochila boradi. Navoiygacha bo‘lgan fors she‘riyatini oladigan bo‘lsak Ahmadi Jomiyning «Chahor pari»si tarkibida qizil rang bilan bog‘liq ikkita g‘azal mavjud. Xusrav Dehlaviy va Hasan Dehlaviy she‘rlari orasida ham bittadan «safed» (oq) radifli g‘azal uchraydi. Bularda tasvirning izchilligi ma‘lum darajada radifning talabi bilan bog‘langan. Navoiy g‘azallarida oshiq va ma‘shuqa qiyofasini, ruhiy olamini yoritishdahan rang tasviri keng qo‘llaniladi.

Yuzung shahidlari tufrog‘in sovrurmish yel,
Bukim bulut ko‘runur ko‘kta har taraf gulgun.

Baytda ma‘shuqa yuzining qizil ekanligi aytilmasa-da, “gulgun” so‘zi bevosita shunga ishoradir. Unga ko‘ra yorning gulgun yuzini ko‘rgan oshiq shunchalik shaydo bo‘ladiki, oxirda ishq yo‘lida shahidlik darajasiga yetadi. Ishq otashi oshiq yotgan tuproqni ham yondirib kul qiladi, shamol esa bu tuproqni sovurib,

osmonu falakka ko'taradi. Bunda "gulgun" ramzi orqali yorning yuzi qizil ekanligi, qizil yuzlilik go'zallikning eng muhim belgilaridan biri ekanligi oydinlashadi. Ishq dardi chin oshiqlikni shahidlik martabasiga yetkazishi obrazli holda ko'kda bulutlarning qizil bo'lishi orqali ifoda etilgan. Umuman, Navoiy she'riyatidan bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin.

Navoiy lirikasidagi "jon qushi" obrazi bilan dostonidagi "jon qushi" timsolining o'xshashlik tomoni: har ikkalasi ham qush, demak, parvozga tashna. Faqat lirikadagi jon qushining oshiqlik tasvirlari ustunroq. U yorning qoshida parvona yoki unga etish uchun shiddat bilan itilmoqda. Dostonidagi "jon qushi" esa orif oshiqdir. U Tangri hamdi bilan sayrab (u haqda bilganlarini yoki ishqining asrorlarini), bayon etmoqchi. Navoiy lirikasida eng ko'p uchraydigan variantlardan biri – ko'ngul qushi obrazidir. Uni jon qushi timsolining ma'nodoshi, deyishimiz mumkin. Faqat kichkinagina farq – jon qushi Yor jamoli – Tangri diydorini qo'msab uchishga, demakki, tanadan chiqishga intiladi. Ko'ngul qushi esa vujudning ichida o'z shavq va zavqini izhor etadi, hijronda qiynaladi, visoldan shodlanadi. Yana "G'aroyib us-sig'ar"ga murojaat etsak:

Gulni o'xshatqan uchun yoring'a go'yo bog' aro,
Muztarib ko'nglum qushidir, bulbuli shaydo emas

"Layli va Majnun" dostonning badiiy jihatdan yuksak chiqishini ta'minlagan vositalardan biri unda tabiat tasvirining alohida o'rin egallashidir. Navoiy tabiat fasllaridan umumiy ramziy fon sifatida foydalanib, ulardagi o'zgarishlarni qahramonlar kayfiyati va ruhiyatiga hamohang tarzda tasvirlaydi. Qahramonlar shodlangan paytda, ularni o'rab turgan tabiat ham yashnab turadi, ular qayg'uga tushganda go'yo borliq ham xo'rsinib nafas olayotgandek bo'ladi. Masalan, Majnun gulshanda hushsiz yotgan paytda butun tabiat uning boshiga tushgan og'ir savdoga "hamdarlik bildiradi": gul o'z yoqasini chok etadi, lola ko'ksiga qora dog' soladi, sunbul o'z qiyofasini qora rangga bo'yaydi va boshqalar. Doston voqealarining bahor faslida boshlanib, kuz faslida yakunlanishida ham muayyan ramziy ifoda bor.

Doston hazaj bahrining hazaji musaddasi axrabi maqbuzi m ahzuf (ruknari va taqti'i: maf'ulu mafoilun fauvlun,---- V| V - V - | V ----) vaznida yozilgan. Dostonda mazkur vazn bilan birga qo'shimcha tarzda hazaji musaddasi axram i ashtarim ahzuf (ruknari va taqti'i: maf'ulun foilun fauvlun,----- | -V - | V —) vaznining ham qo'llanilganligini kuzatish mumkin. Bu holat tasodifiy bo'lmay, doston mazmuni va g'oyasi bilan chambarchas bog'liq. Dostonidagi 3623 baytdan 240 misra aynan mana shu o'lchovda yaratilgan bo'lib, dostonidagi ziddiyatli voqealar, asar qahramonlarining chuqur ruhiy iztiroblari tasviri, qahramonlar ruhiyatining tabiat tasviri bilan bog'liq bayoni, qahramonlar hayrati aks etgan misralar - lirik chekinish paytida mazkur vaznga murojaat qilinganligini ko'rish mumkin. «Layli va Majnun»ning badiiy nafosatini oshirishga xizmat qilgan vositalardan biri peyzajdir. Navoiy tabiatning uch faslidan umumiy ramz sifatida foydalanadi. Dostonning boshlanishida Majnun bilan Laylining endigina kurtak ochayotgan muhabbati unga mos holda tabiatning ham uyg'onadigan fasli – ilk bahor va uning shodlikka sabab bo'luvchi go'zal manzaralari orqali tasvirlanadi.

Navoiy bahor to'g'risida fikr yuritir ekan, u kishining nozik hislariga ta'sir etuvchi so'zlar orqali shunday tasvir yaratadiki, natijada uning mayin tovlanishlari butun jozibasi bilan kishi ko'z o'ngida namoyon bo'ladi. Sabzaning ko'karishi, gulning ochilishi, gul yaprog'idagi yomg'ir tomchilarining ko'rinishi, mevali daraxtlarning oppoq gullashi, xullas, ilk bahor manzarasi jonli tasvirlangan! Shundan keyin Laylining gullar orasida Majnun bilan uchrashuvi ham nihoyatda san'atkorona badiiy ifoda etilgan:

Sayr ichra yetishti mohi dilxoh,
Bir gul chamaniga ichiga nogoh.

Gulbun bila rust to'rt yoni, Kirsas kishi kimsa topmay oni. Kirgach anga ul shugufta gulzor, Ko'rdi tikan ichra bulbuli zor. Bu nafaqat tabiatning go'zal manzarasi tasviri, balki ramziy ma'noda Qaysning ishq chamaniga kirishiga ishoradir. Gul insonni o'ziga tortganidek, ishq chamaniga ham kishini maftun etadi, u gulzorda tikan va bulbuli zorning bo'lishi oshiqning ishq yo'lida qiyinchiliklar, mashaqqatlarga uchrashini anglatadi.

Dostonda tabiat kishilarning kayfiyati, ruhiga hamohangdir. Qahramonlar shodlanganda, ularni o'rab olgan tabiat ham yashnab turadi, ular qayg'uga tushganda tabiat o'zgaradi. Masalan, Majnun bog'da behush yotgan paytda butun tabiat uning boshiga tushgan bu savdoga qattiq achinadi: Gul o'z yoqasini chok etsa, nargis tushgan shabnam orqali ko'z yoshi qiladi. Majnun qalbidagi dog'ni ko'rgan lola esa unga hamdardlik bildirib, o'z ko'ksiga dog' (qora) soladi. Majnun holatidan binafsha g'amga botsa, sunbul o'z

aft-angorini qoraga bo'yaydi. Hamisha sharqirab quvnoq oqadigan suv motam tutgandek zor yig'laydi. Bunday o'rinlar qahramonlar ruhiy kechinmalarini yanada ta'sirchanroq yoritishga yordam beradi.

Umuman, "Xamsa"da ramziy ma'noga ega jihatlarni ko'p kuzatamiz. "Saddi Iskandariy"ning songgida Iskandar umrining nihoyasini aks ettiruvchi, unga oldindan ayon bo'lgan "temurdin yer, oltundin samo"ning nasib etishi, tuhmatdan qoli kesilgan, butun qoliga kesilganini olib atrofdagilarga saboq beruvchi inson, "Hayrat ul-abror"da maishatga, may-u bodaga berilib, mamlakat boshqaruviga loqayd bolgan Bahrom, uning xarob bir uyga borishi, uy egasining nochor ahvoli shohni hushyor torttirishi, adolatga qaytarishi kabilar tasvirlanadi. "Farhod va Shirin" dostonida Xoqon xazinasidagi sandiq, undagi oyna, Suqrot gori, Farhod duch kelgan tosiqlar-ajdar, dev, tilsim va boshqalarning ham ma'lum ramziy ma'nolari mavjud. Bularning mohiyatiga yetish "Xamsa"ni, Navoiy g'oyalarini haqqoniy anglash imkonini beradi.

Foydalanilgan Adabiyotlar Ro'yxati:

1. Hayitmetov A. Ilk Navoiyshunoslar // Navoiyga armug'on. K.2. –T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi, 2000. – B. 7-15
2. Valixo'jayev B. Mumtoz siymolar. – T.: Meros, 2003. – B. 129-185
3. Boltaboyev H. Mumtoz so'z qadri. Adabiy-ilmiy maqolalar. – T.: Adolat, 2004.
4. Navoiyning ijod olami. Maqolalar to'plami. – T.: Fan, 2001.
5. Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. -T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi, 2006.